

XOLOV Vohid

Fanlar akademiyasi Tarix instituti
katta ilmiy xodimi, PhD
Central Asian University ma'ruza xisisi
Abdovohid1116@gmail.com

XIX – XX ASR BOSHLARI INGLIZ TADQIQOTLARIDA TURKISTON MADRASALARI FAOLIYATINING YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ТУРКЕСТАНСКИХ МЕДРЕСЕ В АНГЛИЙСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ XIX - НАЧАЛА XX ВВ.

COVERAGE OF TURKESTAN MADRASAHS IN ENGLISH STUDIES OF THE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES

Annotatsiya: Maqola XIX-XX asr boshlarida Turkistonga yuborilgan britaniyaliklar hamda ularning vakillari tomonidan yozilgan ishlar asosida mintaqada ta'limning amalga oshirilishi, ta'lim muassasalari, ularda o'qitish tizimi, madrasalarning shaharsozlikda tutgan o'rni ochib berilgan. Garchi tahlil qilingan manbalardagi ma'lumotlarda chalkashlik, umumiylik xususiyati ustivor bo'lsa-da, bu Turkiston ta'limi haqida britaniyaliklarda shakllangan tasavvurlarni aks ettiradi.

Kalid so'zlar: Turkiston, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Xiva, Qo'qon, madrasa, waqf, darslik.

Annotation. This article examines the portrayal of Turkestani madrassas and education within them in 19th and early 20th century English sources. Based on the writings of British travelers and officials, it analyzes educational institutions, teaching systems, and the role of madrassas in urban development. Despite the prevalence of generalizations and inaccuracies in these sources, they offer valuable insights into British perceptions of education in Turkestan.

Keywords: Turkestan, Bukhara, Tashkent, Samarkand, Khiva, Kokand, madrasa, waqf, textbook.

Аннотация. В статье исследуется система образования в Туркестане XIX - начала XX веков на основе работ английских авторов, посетивших регион в этот период. Особое внимание уделяется учебным заведениям, методам обучения и роли

медресе в городской среде. Несмотря на то, что анализируемые источники зачастую содержат неточности и обобщения, они представляют ценность, поскольку отражают восприятие британцами образовательной системы Туркестана.

Ключевые слова: Туркестан, Бухара, Ташкент, Самарканд, Хива, Кокан, медресе, фундамент, учебник.

KIRISH

Turkiston hududi o'rta asrlarda ilm-fan va madaniyat markazi sifatida, unda o'qitish tizimining samaradorligi, o'qituvchilarning yuqori malakali bo'lganligi dovrug'i IX-XII asrlar hamda Temuriylar davrida tarbiyalangan yetuk allomalar va ular tomonidan yaratilgan nodir asarlarning dunyo bo'ylab keng tarqalishi hisobiga jahonning chekka nuqtalariga etib borgan edi. Bu esa, xorijda mintaqaga ta'lim tizimiga bo'lgan qiziqishlarning ortishiga xizmat qilgan. XIX asr boshlaridan mintaqaga kelgan deyarli barcha sayyoh va tadqiqotchilarning ingliz tilida chop etilgan asarlari va gazeta maqolalarida [1] mintaqaga oid tasavvurlar, ta'lim muassasalari, ularning moliyaviy ta'minoti, daromad manbalari, arxitekturasini va holati, yutuqlari va kamchiliklari, ularda olib borilgan asosiy fanlar hamda ularni o'qitish usullari, mudarris va talabalar ta'minoti, o'rganish mumkin bo'lgan yutuqlar haqida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

ASOSIY QISM

Turkiston aholisi doim va har qanday sharoitda ham ta'limga jiddiy mas'uliyat bilan yondashgan. Tarixdan mintaqaga hukmdorlarining mamlakat boshqaruvi bilan birga, ta'lim bergani, asarlar yozgani Mirzo Ulug'bek, Abulg'azi Bahodirxon, ba'zi amirlar misolida ma'lum. Dastlab Mir Izzatulloh, keyinroq esa V. Murkroft va A. Byorns Amir Haydarning davlat boshqaruvi bilan birga, mudarrislik qilganini qayd etadi [11:714; 2:312]. Ayniqsa, Mir Izzatulloh amining ertalabki ibodatdan keyin 40-50 talabaga Qur'on va hadisdan dars o'tganini urg'ulaydi [10:65].

Turkistonliklarning ta'limni jiddiy sanashlarining yana biri misoli sifatida Yu. Skayler keltirgan dalillardan ko'rish mumkin. Uning asarida Toshkent bosib olingandan so'ng aholi vakillarining kuch bilan 1865 yil 2 iyulda rus imperatoriga yozdirilgan murojaatnomaning

ingliz tilidagi tarjimasi keltirilgan. Jumladan, unga muvofiq, Rossiya imperiyasi quyidagi shartlarga rozilik berishi talab qilingan: o'quvchilar maktabdorlar maktabiga doimiy borishlari va islom e'tiqodiga oid qonunlarni o'qitishda hech qanday to'siq bo'lmasligi; maktabga o'quvchi yig'ishga ruxsat berish; o'quvchilarning bir soat yoki bir soniya vaqtlarini ham zoe ketishiga, darsning bir soatini ham qoldirishiga yo'l qo'ymaslik, bunday holat kuzatilsa ularni, kerak bo'lsa urib jazolash, o'qishga majburlash, ota-onalar farzandlari o'qishiga loqayd bo'lsa, ularni islom shariatiga ko'ra rais yoki qozi kalonga olib borib, mavjud taomilga ko'ra jazolash [15:116].

Shuni qayd etish joizki, xorijlik sayyohlar asarlarining barchasi ham ta'lim bo'yicha aniq, mufassal ma'lumot taqdim etavermaydi. Sababi mualliflar aksariyat qismi mintaqada qisqa vaqt bo'lib, muayyan topshiriq asosida faoliyat olib borganlar va ular ishlarida mahalliy aholidan olingan ma'lumotlar batafsil, ammo tahlilsiz keltirilgan. Mir Izzatulloh, A. Vamberi, Yu. Skayler, H. Lansdell, O. Olufsen, A. Miken kabi mualliflarga mintaqani chuqur o'rganish vazifasi yuklatilgan. Shu sababli ular asarlarida ta'lim bo'yicha keng ma'lumot berilgan.

Umuman olganda, XIX – XX asr boshlarida ingliz tilida yozilgan ishlardan ta'lim muassasalari turi, faoliyati, ularda o'qitilgan fanlar, ta'lim binolarining shahar qurilishida tutgan o'rni kabi masalalarga oid ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin. Bu ishlar o'quvchida ta'limga haqida tasavvurni shakllantiradi va ularni yaxlit tarzda o'rganish mavzuga chuqur kirib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ta'lim olishda XIX asrgacha bolalar deyarli bir xil usulda savod chiqarib, tahsil olgan bo'lsa, keyinchalik rus maktablari, yangi usul maktablari o'z faoliyatini boshladi va bu maktab ta'limida xilma-xillik hamda raqobatni yuzaga keltirdi.

Ma'lumki, tahsil olish bu davrda ikki bosqich – boshlang'ich va oliy ta'limdan iborat bo'lgan. Boshlang'ich ta'lim asosan maktablarda olib borilgan bo'lib, ular masjidlar qoshida, maktabdor uyida tashkil qilingan. Shuningdek, o'quvchilar salovotxona, qorixona, masnaviyxona kabi maxsus maktablarda ham savod chiqarib, o'qish va yozishni o'rgangani qayd etiladi [15:165]. Oliy ta'lim madrasalarda olib borilib, u adno, avsat va oliy bosqichlariga bo'lingan.

Tarixiy tadqiqotlar Turkiston aholisining doimo manfaatli yangiliklarga xayrixoh bo'lgani va ta'limni qo'llab-quvvatlaganidan dalolat qiladi. Ammo Toshkent shartnomasida aholining ta'limiga to'sqinlik qilmaslik, unga aralashmaslik majburiyatini olgan rus ma'muriyati turli bahonalar bilan ta'lim rivojiga to'siqlar qo'ya boshladi. Buning namunasi Yu. Skayler asarida o'z aksini topgan. Muallifning keltirishicha, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda yangicha ta'lim muassasalariga asos solina boshlangan. Chunonchi, qozoq, turkiy va fors tillarini yaxshi bilgan boshqirdistonlik Sirtlonov Samarqandda kasalxona va maktab ochgan. Maktabga musulmonlar qiziqishi yuqori bo'lib, ular bolalarini rus tilini o'rganishi uchun bu maktabga yuborgan [15:267]. Natijada Sirtlonovning aholi orasidagi shuhrati osha boshlagan va bu rus ma'muriyatini xavotirga solgan. Shu sababli, bir ozdan so'ng Sirtlonov mutaassibga chiqarilib, xizmatdan chetlatilgan.

Ingliz mualliflari asarlaridan ruslarning mintaq aholisining ta'lim olish huquqlarini sun'iy cheklagani va ruslarning ta'limga oid siyosatiga etarlicha salbiy bahoni ko'rish mumkin. Chunonchi, J.N. Kerzon inglizlar va ruslarning istilo qilingan hududlarda olib borgan siyosatini taqqoslab, ularda mahalliy aholiga ta'lim berish va yoshlarni quvvatlashni qiyoslaydi va inglizlar bu masalani birlamchi hamda maxsus vazifa hisoblaganini ta'kidlagan [3:394]. Uning yozishicha, ruslar esa, mutlaqo boshqa yo'nalishda bu faoliyatni tashkil qilib, ular egallagan hududlardagi musulmon diyorlarining ta'lim usuli va muassasalari faoliyatiga ta'sir o'tkazilmagan, maktab va madrasalar o'zlarining eskirgan usullarida faoliyat olib borishi va ularni intellektual rivojlanishning yuqoriroq bosqichiga olib chiqishga harakat qilinmagan, hukumat vaqfdan tushadigan daromadlarni yig'ish va taqsimlashda aralashmay, katta miqdordagi pul taqsimoti mullalar [madrasa xodimlari] va talabalarga qoldirilgan.

M. O'Dvayr bir qator sof mahalliy boshlang'ich maktablar bo'lgani, ularda rus tili darslari rus o'qituvchilari, qolgan darslar mahalliy o'qituvchilar tomonidan fors va o'zbek tillarida olib borilgani, ammo bularning barchasi ta'limga bo'lgan ehtiyojni qoplay olmagani, Turkistonda o'g'il bolalar uchun o'qishni universitet yoki kasb-ta'lim muassasalarida davom ettirish huquqini beruvchi bori-yo'g'i bitta gimnaziya

yoki yuqori maktab Toshkentda bo'lib, unga deyarli faqat ruslar qabul qilingani, buning natijasida turkistonliklarning oliy ma'lumot olish imkoniyati mavjud emasligi ta'kidlagan. Shuningdek, tadqiqotda Rossiya amaldorlari va mahalliy aholining ta'lim muassasalariga ehtiyoj borligini qattiq ta'kidlashi, ular o'z farzandlarini oliy ma'lumot olish uchun Rossiyasining g'arbiy hududlariga yuborishga majbur bo'lgani, mahalliy aholi hanuzgacha davlat (rus) maktablariga shubha bilan qaragani va ba'zi o'zbeklar rus tilida dars berish uchun o'z mablag'lari hisobidan maktablar ochishni afzal ko'rayotgani, din omili sababli ko'chmanchilarning mahalliy aholiga nisbatan rus maktablarida ta'lim olishga ishtiyoqi balandligi, shahar va qishloqning katta qismini tashkil etgan turkistonliklar mullalar ta'sirida bolalarini masjidlar qoshidagi sof islomiy maktablariga yuborishga majbur bo'lishi va bu ko'proq shaharlarda uchrashi, darslarning asosan diniy bilimlar asosida olib borilganini qayd etadi [12:504].

Shuningdek, muallif safari davomida mahalliy maktablardan biriga olib borilgan. Bu, albatta unda salbiy taassurot qoldirgan [12:505]. Bundan maqsad, katta ehtimol bilan ruslar shu orqali o'zlarining mustamlakachilik siyosatining to'g'ri va maqsadli ekanligini ko'rsatishga uringan bo'lishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Yu. Skayler kabi, O'Dvayr ham bu muammoning echimiga to'siq sifatida ta'limni moliyalashtirishning mutlaq qoniqarsiz ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, bunda ham mustamlakachilar mahalliy ta'lim muassasalariga e'tibor qaratmaganligi, ularning rivojlanmasligidan manfaatdor ekanligi namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limni tugatgan qizlar odatda kelgusida mustaqil o'qish orqali o'z bilimlarini mustahkamlab borgan bo'lsa, o'g'il bolalarning bir qismi madrasada o'qishni davom ettirgan.

XIX asr so'nggiga qadar Turkistonning mintaqa uchun fan va ta'lim markazi maqomida bo'lishi evropaliklarning bu borada qiziqishlari ortishiga xizmat qildi. Shu sababli bo'lsa kerak, mintaqaga kelgan har bir g'arblilikning asarlari, qayd va esdaliklarida madrasalar, ularning soni hamda sig'imi, joylashuvi, o'qitilgan fanlar, ta'limning moliyalashtirilishi ba'zan qisman, ba'zan mufassal o'z aksini topgan.

Mintaqa madrasalarida tahsil oluvchilar jug'rofiyasi bu davrda juda katta bo'lgan [22; 4; 6:301]. Chunonchi, A. Byorns Buxoro madrasalari

dovrug'i va nufuzini qayd etib, ularda Erondan boshqa barcha qo'shni mamlakatlardan ham talabalar bilim olganligini keltirib o'tgan. A. Vamberi asarlarida keltirilgan ma'lumot buni tasdiqlaydi. Unga ko'ra, talabalarning nafaqat turkistonlik bo'lgani, balki Markaziy Osiyoning turli hududlaridan, hatto Hindiston, Kashmir, Afg'oniston, Rossiya va Xitoydan ham kelgani, bu esa Buxoroning qo'shni davlatlarga ma'naviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati borligini qayd etadi. Buning isboti Ahmad Donish dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutgan Abu Nosir Kursaviy (1776–1812), Shahobiddin Marjoniy (1818–1889) kabi olimlarning tahsil olganida ko'rinadi. Vamberi Buxoro madrasalarida 5000 atrofida, Olufsen 10000 atrofida talaba o'qiganini yozadi [19:365; 13:386].

Turkistonda madrasalarning hududlar kesimida joylashuvi va soni ingliz tilida bitilgan hech bir ishda to'liq ko'rsatilmay, har bir ishda muayyan shahar yoki tumanlar miqyosida keltiriladi. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent madrasalari haqida ko'p yozilishi bilan birga, Qo'qon, Qarshi va boshqa shaharlardagi madrasalar bo'yicha tarqoq ma'lumotlar keltiriladi. Buxorodagi madrasalar soni va sig'imi haqida so'z borar ekan, Mir Izzatulloh XIX asr bosqlarida 80 ta madrasa faoliyatda bo'lgani, ularda qirqtadan ikki yuz, ba'zilarida uch yuztagacha xona bo'lgani, chunonchi Ko'kaldosh madrasasida 200 ta xona bo'lib, har bir xonaga 2 kishi joylashtirilganini yozib qoldirgan. Aleksandr Byorns esa, (Buxoro) Buxoro shahrida 366 ta madrasa faoliyat ko'rsatgani, ularning 1/3 qismida 70-80 tadan ortiq talaba tahsil olgani, ko'plarida 20 ta va ba'zilarida 10 ta talaba o'qiganini, J. Hutton Buxoroda 100 dan ortiq madrasa bo'lganligini qayd etadi. Skayler ular sonini ko'rsatmasada, Ko'kaldosh, Devonbegi, Qo'shmadrasa, Shayx Jalol darvozasi yaqinida Jo'ybor, Xo'ja Jalol, Ernazar elchi madrasalarini sanab o'tgan [2:305; 5:287; 16:92-94].

Samarqand madrasalari haqida so'z borar ekan, aksariyat mualliflar Ulug'bek, Sherdor, Tillakori, Bibixonim madrasalarini ta'riflagan. Chunonchi, Samarqand madrasalarini ta'riflagan Mir Izzatulloh ular orasida eng yirigi Xonim madrasasi bo'lgani (Bibixonim madrasasi Xonim deb yuritilgan V.X.), ammo uning nurab, xarob holatga kelganini qayd etadi. Muallif Sherdor va Tillaqori madrasalarini rivojlanayotgan, Ulug'bek madrasasini

Abdurahmon Jomiy o'qigan va istiqomat qilgan deb e'tirof etgan [10:56]. Byorns Sherdor Tillaqori va Ulug'bek madrasalari go'zalligini e'tirof etsa, Samarqand madrasalari haqida yozgan Vamberi ham yuqoridagi madrasalarni sanab o'tadi. U Tillakori madrasasi ichidagi hashamdorlikka yuksak baho bergan. Ulug'bek madrasani ta'riflar ekan, uning XVIII asr boshlarida juda xarob holatga kelib qolgani va madrasaga oid haqiqatga qarama-qarshi ma'lumotlarni keltiradi. Jumladan, u madrasani 1434 yilda qurilgan, uning ichida rasadxona joylashgan (bu mazmundagi ma'lumot Byornsda ham kelgan) va Mirzo Ulug'bek astrologiyaga qiziqishi baland bo'lgan, deb noto'g'ri ma'lumot keltiradi. Shuningdek, A. Vamberi Xonim madrasasining bu davrda xarob holga kelgani, qachonlardir madrasada mingdan ortiq talaba tahsil olib, ular har biri vaqf daromadlaridan yiliga 100 tilla olganini yozib qoldirgan [19:211].

Skayler ham Bibi Xonim madrasasi yer qimirlashlari ta'sirida nurab, xarob holatga kelgani, madrasa sifatida faoliyatini butkul to'xtatgani, aksincha uning hududi va nuragan binosi paxta bozoriga aylantirilganini qayd etadi. Registon madrasalarini tasvirlar ekan, u Ulug'bek madrasasi bir vaqtlar matematika va astronomiya uyi bo'lgani, hokim Yalangto'sh uning qarshisida Sherdor, ularning shimolida Tillakori madrasalarini qurdirganini yozadi [15:250-252].

Mualliflardan Vamberi, Mak Gahan va Lansdell Xiva madrasalari haqida yozib qoldirgan. Vamberi ulardan Muhammad Aminxon, Olloqulixon, Qutlug'murod inoq, Arab Muhammadxon madrasalari sig'imi va daromadlariga oid ma'lumot keltirgan. Lansdell Mak Gahan taqdim etgan ma'lumotni inkor etadi. Chunonchi, Mak Gahan shaharda 17 ta masjid va 22 ta madrasa bo'lganini aytib [8:297], ular faoliyati qaysidir jihatdan katolik monastiriga o'xshatgan bo'lsa, Lansdell 4 ta yirik – Olloqulixon, Qutlug' Murod inoq, Mahammad Rahim va Muhammad Amin va bir necha kichik madrasalar bo'lganini qayd etgan [7:288].

Toshkent madrasalari haqida asosan Skayler va Lansdell asarlarida o'qish mumkin. J. Hutton ularning soni 10 tani tashkil etganini aytish bilan cheklanadi [5:338]. Skayler esa ularning soni 17 bo'lganini qayd etib, 6 tasi yirik va rivojlanayotganini, misol tariqasida Ko'kaldosh, Baroqxon, Beklar begi kabi madrasalarni ko'rsatib o'tgan [15:163]. Lansdell Toshkent shahrining

Shayxontohur dahasida 3 ta, Sebzor dahasida 3 ta, Ko'kcha dahasida 2 ta, Beshyog' ochda 3 ta madrasa faoliyat olib borganini sanab o'tgan [20:439-440]. Garchi Qo'qon xonlik markazi bo'lgan bo'lsa-da, unda faoliyat ko'rsatgan madrasalar haqida juda oz ma'lumot uchraydi. Chunonchi, Qo'qon shahridagi madrasalardan Madalixon tomonidan qurdirilgan Xon madrasasi hamda Norbo'tabiy tomonidan qurdirilgan Mir madrasasini [16:213], Lansdell Qo'qonda Murodbek madrasasi faoliyat olib borganini qayd etadi.

Ingliz tilida yozilgan ishlardan ko'rish mumkinki, madrasalar Turkistonning nafaqat yirik, balki o'rta va kichik shaharlarida ham faoliyat yuritgan. Chunonchi, Hutton Qarshi shahrida 4 ta [5:293] madrasa bo'lganini yozgan bo'lsa, Skayler Shahrisabzda 3 ta, Qarshidagi Saroy madrasasi, Karmanada 1 ta madrasa bo'lganini keltirgan [16:71;79;116]. Lansdell Xiva xonligida Toshhovuzda va Xo'jaylida bittadan madrasa va maktablar borligini yozib qoldirgan [7:330].

Madrasalar shaharsozlikda alohida o'rni tutgan va ular shaharlarning bezagi ham sanalgan. Shu sababli, aksariyat xorijliklar madrasalarning qurilishi va bezaklarini tasvirlagan. Chunonchi, A. Byorns madrasalarning arxitekturasini tasvirlar ekan, ularning to'rtburchak shaklda qurilgani, madrasalar shahar ko'rkini ta'minlashda muhim o'rin tutishi [2:305-306; 14:1], J. Volf Buxoroda madrasa binolarining shaharlarga fusun va mahobat bag'ishlashini ta'kidlagan [18:344]. 1840 yilda Xivaga kelgan Richmond Shekspir shahardagi madrasalarni tomosha qilishga arzigulik binolar ekanligi, ularga yorqin jilolanib turgan rangli koshinlar bilan naqsh berilganini qayd etadi [17:712].

Vamberi Turkistonda madrasalarning soni va ularning bezalishini aholi farovonligi va diniy bilim darajasining ko'rsatgichi, deb keltiradi [19:332]. U Tillakori madrasasi ichidagi hashamdorlikka yuksak baho bergan. Vamberi Xiva shaharsozligida madrasalarning loydan qurilgan uylar orasidagi yirik va ko'rkam binolar bo'lib, ular hovlisi ozoda tutilishi, ularda daraxtlar o'tqazilganini qayd etadi [19:333]. J. Hutton Samarqand masjid va madrasalarini juda chiroyli inshootlar, deb ta'kidlagan [5:176]. Skayler Mir Arab madrasasini tasvirlab, uning katta va yaxshi bino ekanligi, 110 (aslida 114 ta) ta talabalar xonasidan iboratligi, madrasaning qubbalari koshin va rangli g'isht

bilan bezalgani, yuqori qismida ganchkorlik ishi namunalari aks etgani va uning Al-Hambraning dizayniga monandligini e'tirof etadi [16:92].

Registon haqida yozgan J.N. Kerzon 3 ta yirik madrasa ansambli dunyodagi eng ajoyib jamoat maydonini hosil qilganini yozadi. U, *men qo'rqmay aytishim mumkinki, Samarqand Registoni avval ham, hozir xarob holatda bo'lsa ham dunyodagi eng ajoyib xalq maydoni hisoblanadi. Men sharqda va g'arbda uning salobati bilan bellasha oladigan hech narsani bilmayman, balki Venetsiyadagi Piza minorasi Registon bilan bellashuvga kirishi mumkin. Yevropadagi hech bir manzarani u bilan taqqoslab bo'lmaydi*, deb qayd etgan [3:218-220].

Madrasalarda ta'limning tashkil etilishi va moliyalashtirilishi ham keng yoritilgan va o'rganilgan masalalardan sanaladi. Madrasalarning moliyaviy holatini yoritgan Mir Izzatulloh, ular xarajatlarining xayriya orqali qoplangani, asosiy daromad manbai vaqf erlari va mulklaridan kelishi, shu bilan birga amir hatto madrasalarga yig'ilgan zakotdan ulush ajratgani, mudarrislar oyiga 5 - 15 tillo maosh olganini qayd etgan [10:63]. Mudarrislar maoshi, talabalarga stipendiya berilishi A. Byornsning ham e'tiborini tortgan [2:305-306;

14:1]. Madrasalar ta'minoti va daromadlarini qayd etgan muallif ularga juda ko'p homiylik qilinishi, bu borada taqvodorlar tomonidan shahardagi bozor rastalari, hammomlar, shahar atrofidagi ekin maydonlari taqdim etilganini [vaqf qilingani] e'tirof etgan. Bundan tashqari, Hutton, Skayler, O'Dvayr, Olufsen madrasalarni moliyalashtirishda vaqfdan kelgan daromad muhim o'rin tutganiga e'tibor qaratgan. Xususan, J. Hutton madrasalarga juda katta miqdorda xayriyalar qilinishi ularning o'qituvchilari va talabalarining dangasaligiga sabab bo'lgan, deb ko'rsatadi [5:287]. Toshkent madrasalarini yoritgan Skayler Beklar begi madrasasi haqida kengroq ma'lumot berib, bu shahardagi eng katta va serdaromad madrasa bo'lgani, uning tasarrufidagi uylar, do'konlar, tegirmonlardan tushgan daromad 200 talabani ta'minlagani, madrasalarda ta'lim mutlaqo bepul bo'lib, mudarrislar vaqf daromadlaridan maosh bilan ta'minlanganini qayd etgan.

Vamberi Xiva va Buxoro madrasalari haqida kengroq ma'lumot keltirishga harakat qilgan. Chunonchi, u Xiva madrasalari daromadlari quyidagilarni keltiradi [19:333]:

Madrasa nomi	Daromad miqdori	Sig'imi	Taqsimot (yillik)	Talabalarga
Muhammad Aminxon madrasasi	12 ming Xiva botmonida bug'doy va 5 ming tilla pul	130 hujra, 260 talaba	5 ta oxundga - 3000 botmon bug'doy va 150 tillo; imomga - 2000 botmon bug'doy, 40 tillo; muazzinga - 200 botmon bug'doy; 2 ta xodimning har biriga - 200 botmondan bug'doy; sartaroshga - 200 botmon bug'doy; 2 ta mutavalli yoki nazoratchiga - daromadning o'ndan bir qismi.	3 sinfdan iborat o'quvchilarga: yuqori sinf (oliy) - 60 botmon (bug'doy) va 4 tilla; o'rta sinf (avsat) - 30 botmon (bug'doy) va 2 tilla; quyi (adno) - 15 botmon (bug'doy) va 1 tilla.
Olloqulixon madrasasi		120 ta hujra	-	Har bir talabaga - 50 botmon bug'doy va 2 tilla
Qutlug'murod inoq madrasasi	Bir hujraga - 3 tilla va 50 botmon bug'doy	-	-	-

Xivadan Buxoroga kelgan Vamberi u erdagi madrasalar sonining 80 ga yaqin bo'lganligini qayd etib, ularning eng mashhurilaridan quyidagilarni sig'imi va daromadlari miqdoriga ko'ra keltirgan:

Ko'kaldosh madrasasida 150 ta hujra mavjud bo'lib, ularning har biri 100 dan 120 tillogacha baholangan. Birinchi bosqich talabalariga har yili besh tildan berilgan.

100 hujradan tashkil topgan Mirarab madrasasida hujraning har biri 80 dan 90 tilla turgan.

Qo'shmadrasa 100 ga yaqin hujralardan iborat bo'lib, hujralari yuqoridagilarga nisbatan arzonroq bo'lgan.

Jo'ybor madrasasiga xayriya ko'p qilinishi, har bir hujra 25 tillo turishi, shunga qaramay shaharning chekkarog'ida bo'lganligi sababli to'la bo'lmaganligi aytiladi.

Tursinjon madrasasida har bir hujra yiliga besh tilla daromad keltirgan.

Ernazar elchi madrasasi Rossiya imperatori Yekaterina 2 tomonidan qurdirilgan degan fikr keltirilgan. U 60 ta hujradan iborat bo'lib, ularning har biri uch tillo daromad keltirgan [19:364].

Madrasalarda ta'lim tizimi va o'qitilgan fanlar barcha hududlarda deyarli bir xilda amalga oshirilgan. Aksariyat mualliflar o'quv yili tahsil va ta'tildan iboratligi, unda 6 oy dars o'tilib (odatda oktyabrdan aprelgacha), qolgan qismida talabalarga daromad ko'rish uchun imkon berilgan. Byornsnings yozishicha, madrasalarning amir buyrug'iga ko'ra yarim yilga yopilgani va ta'til davomida talabalarga qo'shimcha daromad topish uchun imkon yaratilgani uni hayron qoldirgan [2:306]. Hutton yilning 6 oyida ta'lim to'xtatilib, bu davrda ulardagi o'qituvchilar va talabalar e'tiyajlari uchun pul topish bilan mashg'ul bo'lganini yozadi [5:287].

Madrasalarda o'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, ularni Vamberi – adno, avsat va oliy, Lansdell birinchi, ikkinchi, uchunchi, Olufsen pestqadam, miyona va peshqadam deb keltirgan [19:333; 15:165; 7:288; 13:386]. Madrasada aksariyat talabalar o'rtacha 7-8 yil, ammo ba'zilar 15 yil ta'lim olgan. Bunda talabalarining ta'limni to'xtatgan bosqichiga qarab ish faoliyatini boshlagan. Masalan, barcha bosqichni tugatgan talabalarga imom, mudarris, muftiy yoki qozining kotibi kabi lavozimlarda ishlash imkonini berilgan.

Madrasalarda islomshunoslik fanlari salmog'i yuqori bo'lgani ma'lum. Chunonchi,

Byorns madrasalarda o'tiladigan fanlar orasida ilohiyot va dinga oid darslarning salmog'i yuqori bo'lganini ham qayd etgan [2:307]. J. Volf asarida madrasalarning barchasida ta'lim sunniy mazhablar asosida olib borilib, ularda ritorika, she'riyat va mantiq o'qitilgani, mashg'ulotlarning bahs-munozara va fikr almashinuv usullarida olib borilgani qayd etilib, o'qitishning asosiy obyekti Qur'on bo'lgani yozilgan [18:344]. Bundan tashqari, u madrasalarda sunniy va shia ulamolarining asarlari tahlil qilinishi, notiqlikka urg'u berilgani, bahslar ilmiy asoslangan holda olib borilgani, Baydaviy va Jaloliddin Rumi o'qitilishini keltirib o'tgan [21:208].

Skayler madrasalarda talabalar kamida 28 ta kitobni o'qishi majburiyligi, to'liq ta'lim 15 yil davom etib, bunda talabalar 137 tagacha kitob o'rgani, hamma talaba ham o'qishni oxirigacha etkazishga muvaffaq bo'la olmaganini aks ettirgan.

Toshkentda mashg'ulotlar borishining bir necha marta bevosita guvohi bo'lgan ushbu muallif dars jarayonini quyidagicha tasvirlagan: darslarga talabalar oldindan tayyorlanib keladi, darsda mudarris kitobdan bir parchani o'qib, uni sharhlab beradi, keyin talabalar unga izohlar berib, munozaraga kirishadi, o'zaro fikrlar qarama-qarshi bo'lganida mudarris ularni to'xtatadi. Muhokamada atrofda kuzatuvchilar ham ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, Skayler uni kuzatib borgan ikki mulla ham muhokamada ishtirok etgani, bu esa darsni yanada jonlantirgani, muhokama oxirida mudarris masalaning echimini aytib keyingi masalaga o'tganini qayd etgan [15:165]. Bundan darslar munozalar uchun ochiq bo'lgani va talabalarga masala yuzasidan o'z fikrlarini ifoda etishga imkon berilganini ko'rish mumkin.

Lansdell asarida Xiva madrasalarida talabalar birinchi bosqichda grammatika va ritorika, ikkinchi bosqichda metafizika va dialektika, uchunchi bosqichda esa fiqh va aqida o'qitilgani keltirilgan [7:288].

Madrasalar ta'limiga to'xtalgan Olufsen fanlarning aksariyat qismini diniy fanlar tashkil etganini ta'kidlaydi. Shuningdek, u tarix, arifmetika, huquqiy bilimlar, xattotlik, turkiy, fors va arab tillari, algebra, geometriya, astronomiya va fors shoirlari kitoblari o'qitilganini ham qayd etgan. Madrasa talabalarining o'qitilgan va o'zlashtirilgan kitoblarga qarab guruhlanganini ta'kidlagan muallif Sarfdan Tahzibgacha o'zlashtirgan talabalar Peshqadam deyilgani va

yiliga 3 tilla olgani, Tahzibdan Mulla Jalagacha o'zlashtirganlar Miyona (o'rta) deb nomlangani va yiliga 3/2 tilla olgani, yuqori bosqichdagilar Mulla Jalani tugatgani va Peshqadam deyilgani, ular yiliga 5 tilla olganini yoritgan [13:386].

Olufsen madrasalarda o'qitilgan kitoblarning asosan arab va fors tillarida, qisman turkiy tilda bo'lgani, o'qitilgan 137 ta kitob orasida Mirzo Ulug'bekning astronomiya kitobi ham borligini aytib, uni taniqli shaxs sifatida yozadi. Muammo sifatida ko'p o'quvchilar kitoblarning mazmunini tushunmasdan, faqat yodlab takrorlashlarini ko'rsatgan. Shuningdek, u kitoblarning uch sinfga – matn, sharh va hoshiyaga bo'linganini qayd etib, matnni fanning o'zi bilan shug'ullanish, sharh yuqoridagilar sharhi va Hoshiya ikkalasining ham sharhi ekanligini aytib o'tgan. Bundan tashqari, o'z oldiga yuksak maqsadlarni qo'ygan shaxslar va boylar Makka, Madina yoki Istanbulga borib o'qishga intilishlari, biroq ruslar ularning Istanbul bilan aloqada bo'lishlariga imkon qadar to'sqinlik qilishini keltirib o'tgan [13:386-387].

Xorijiy ishlardan madrasalarda ta'lim erkin bo'lgani, talabalarga akademik mobillik va o'zlari xohlagan yo'nalishni tanlash imkoni berilganini ko'rish mumkin. Chunonchi, Landell ularda yo'nalish tanlash imkoni bo'lgani va ularning ko'pchiligi fiqhni tanlaganini ta'kidlangan [7:288]. Miken esa, ta'limda ba'zi jihatlardan hayratlanganini yashirmagan. Jumladan, u talabalar tahsil olishda o'z madrasasidagi o'qituvchidan qoniqmasa, unda o'zi xohlagan boshqa madrasadagi mudarrisning ma'ruzalariga borishi mumkinligini keltirib, bu mudarrislar maoshlariga ham ta'sir qilgani, natijada ularning ba'zilar juda yuqori va ba'zilar aksincha, juda oz maosh olganini [9:77] qayd etgan.

Rossiya bosqini ayniqsa Turkiston general-gubernatorligidagi madrasalar faoliyatiga katta zarba bergan. Chunonchi, nuragan madrasalar ta'mirlanmagan, vaqf mulklari tortib olinishi natijasida ba'zi madrasalar xarobaga aylanib borgan. Bundan tashqari, bosqinchilar o'z siyosati yo'lida madrasalar yo'lga turli bahonalar bilan g'ov bo'lgan. Chunonchi, Skayler yozishicha, Toshkent yarmarkasi sababli Said Abul Qosim madrasasining asosiy daromad manbai bo'lgan bozordagi inshootlari yopilganda, uning daromadlari tushib ketadi va Said Abul Qosim do'stlarining taklifi bilan ma'muriyatga faoliyatni davom ettirishga ruxsat berishlarini va madrasa

ta'limida rus tili hamda zamonaviy fanlarni kiritishga rozi ekanini bildiradi. Ammo bu xatti-harakatlar ruslar tomonidan paysalga solingan. U madrasa ta'minoti Said Abul Qosim tomonidan moliyalashtirilganini e'tirof etgan [15:164]. Kerzon esa, ruslarning bosib olingan 'ududlarda ta'lim usuli va muassasalari faoliyatiga ta'sir o'tkazilmagani, maktab va madrasalar o'zlarining eskirgan usullarida faoliyat olib borishi va ularni intellektual rivojlanishning yuqoriroq bosqichiga olib chiqishga harakat qilinmagani, hukumat vaqfdan tushadigan daromadlarni yig'ish va taqsimlashda aralashmasligi; katta miqdordagi pul taqsimoti mullalar [madrasa xodimlari] va talabalarga qoldirilishini tanqid qilgan [3:394].

XULOSA

XIX - XX asr boshlarida yozilgan ingliz tilidagi manbalar tahlili mintaqada ta'lim muassasalari turi, holati, ta'limning olib borilishi va bosqichlari, o'tilgan fanlar, ularning moliyalashtirilishiga oid xulosalarni shakllantirishga, talabalar tarkibi, ularning faoliyati, ta'lim muassasalari binolarining shaharsozlikdagi o'rni, madrasa va maktablar qurilishida homiylikning ahamiyati, ruslarning mahalliy ta'limga munosabati, ularning turli bahonalar bilan madrasa va maktablar faoliyatiga to'sqinlik qilishini yoritishda katta xizmat qiladi. Mualliflar qaydlaridan ta'limga oid har bir ma'lumot inglizlarni qiziqtirgani, asarlarda kelgan ma'lumotlarning deyarli takrorlanmasligi, ularning ta'limni yaqindan kuzatishga harakat qilgani ularning bu borada katta qiziqish bildirganidan dalolat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A College in Bukhara // The Rich Hill tribune., October 25, 1906, Image 7; The Coeur d'Alene press., December 19, 1906, Page 7; The Logan Republican. [volume], November 17, 1906, Image 8; The Vinita daily chieftain. [volume], November 03, 1906, Image 3; The Forrest City times. [volume], October 26, 1906, Image 6; Las Vegas times. [volume], November 03, 1906, Image 1; Hornheralds new law in Bukhara // The Washington times. [volume], May 15, 1923, Image 30. Civil & Military Gazette (Lahore). Lahore, Pakistan. Friday 04 August 1882. Page: 1, 2; Friend of India and Statesman / West Bengal, India. Thursday 04 June 1868. Page: 3.

2. Burnes A. Travels into Bokhara; being Account. Vol. 1. London: John Murray, Albemarle Street, 1834.
3. Curzon George. Russia in Central Asia // London, Longmans, Greens and Co., 1889.
4. Frank, Allen J. Bukhara and the Muslims of Russia: Sufism, Education, and the Paradox of Islamic Prestige. Brill, 2012
5. Hutton James. Central Asia: from the Aryan to the Cossack. London: Tinsley Brothers. 1875.
6. James Pickett. Polymaths of Islam: Power and Networks of Knowledge in Central Asia. Ithaca, NY: Cornell University Press, 2020.
7. Lansdell Henry. Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv, Vol. II. London, S. Low, Marston, Searle, and Rivington, 1885.
8. Mac Gahan J. A. Campaigning on the Oxus and the Fall of Khiva // New York, Harper & Brothers, 1874.
9. Meakin Annette. In Russian Turkestan: A Garden of Asia and Its People // G. Allen, 1903.
10. Meer Izzur Oollah. Travels in Central Asia. Calcutta: Printed at the Foreign Department Press, Council House Street. 1872.
11. Mr. Moorcroft. The Asiatic Journal and Monthly register for British India and its Dependencies. Vol. XXI. London. 1826.
12. O'Dwyer and Noble. A Visit to Russian Central Asia. The Journal of the Society of Arts, V. 45, No. 2317.
13. Olufsen O. The Emir of Bokhara and His Country: Journeys and Studies in Bokhara (with a Chapter on My Voyage on the Amu Darya to Khiva). Nordisk forlag, 1911.
14. [Saint James's Chronicle, London, England, Tuesday 30 September 1834](#). Page: 1.
15. Schuyler Eugene. Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. Volume 1 // New York, Scribner, Armstrong & co., 1876.
16. Schuyler Eugene. Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. Volume 1 // New York, Scribner, Armstrong & co., 1876.
17. Shakespeare R. A Personal Narrative of a Journey From Heraut to Ourenbourg on the Caspian, in 1840. Blackwood's Edinburg Magazine/ 1842. T. 51. № 320.
18. Travels and adventures of the Rev. Josheph Wolff , Vicar Of Ile Brewers, Near Taunton; And Late Missionary To The Jews And Muhammadans In Persia, Bokhara, Cashmeer, Etc. London: Sounders, Outley, and Co.
19. Vambery Arminius. Travels in Central Asia being an Account of a Journey from Teheran across the Turkoman Desert on the Eastern Shore of the Caspian to Khiva, Bokhara, and Samarcand. London. JOHN MURRAY. 1964.
20. Lansdell Henry. Russian Central Asia including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv, Vol. I. London, S. Low, Marston, Searle, and Rivington, 1885.
21. Wolff Joseph. Narrative of a Mission to Bokhara, in the years 1843-1845 // New York. 1845.
22. Зиёев Ҳ. Россиянинг Қозон, Астрахан, Сибир, Қрим, Кавказ ва Туркистонга тажовузи ва ҳукмронлигига қарши курашлар // XVI асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари (VI жилд). Т. Янги аср авлоди. 2012.